Advances in Science and Education, 2025, 23–24

doi: 10.70728/edu.v01.i04.009
Volume 01, Issue 04
ISSN: 3060-5415
Paper

PAPER

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TA’LIM JARAYONINI VEB-SAYTLAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH

Tuxtaboyev Sarvarbek Xasanboy o’g’li[1], *

[1]Qo‘qon davlat universiteti doktoranti

* tuxtaboyev@gmail.com

Abstract

Maqolada zamonaviy raqamli ta’lim sharoitida ta’lim jarayonini veb-saytlar orqali tashkil etishning amaliy, metodik xususiyatlari, muammo va masalalari tahlil qilinadi.

Key words: Raqamli transformatsiya, zamonaviy texnologiyalar, veb-saytlar, pedagog kadrlar, malaka oshirish, raqamli kompetensiya.

Kirish

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida sodir bo‘layotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ushbu sohada amalga oshirilayotgan amaliy ishlarga boshqa nazar bilan qarashga undadi. An’anaviy dars shakllarining raqamli muhitga moslashuvi natijasida o‘qituvchilar turli veb-saytlar va platformalardan foydalanishni o‘rgana boshladilar. Veb-saytlar asosida tashkil etilgan aralash darslar bugungi kunda nafaqat zarurat, balki ta’limning muqarrar rivojlanish bosqichiga aylandi. Jumladan, pandemiya davrida global miqyosda veb-texnologiyalarning ahamiyati keskin ortdi va ta’lim tizimi o‘z faoliyatini davom ettirish uchun tezkor yechimlarni qabul qilishga majbur bo‘ldi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonini veb-saytlar yordamida tashkil etish darslarning interaktivligini oshiradi, o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va baholash tizimining shaffofligini ta’minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Raqamli ta’lim muhitida ta’lim tizimini tashkil etish, jumladan fanlarni o‘qitishda veb-saytlardan foydalanish bir qancha yangi yondashuv va metodlarni yuzaga keltiradi. Kuzatish va tahlil qilish asnosida bir qancha veb-saytlar ta’lim jarayonini tashkil etishda asosiy pedagogic dasturiy vosita sifatida tanlab olindi. Jumladan, Google Classroom, Microsoft Teams va Quizizz misolida o‘quv materiallarining joylashtirilishi, baholash tizimi, muloqot mexanizmlari va metodikasini tahlil qilish muhim o’rin tutadi.

Natijalar

Raqamli ta’lim muhitida veb-saytlar yordamida o‘quv jarayonini tashkil qilish amaliyotda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Ayrim o‘qituvchilar tayyor platformalardan, masalan, Google Classroom yoki Microsoft Teams kabi tizimlardan foydalanayotgan bo‘lsa, boshqalari mustaqil saytlar yaratish yoki test platformalaridan – xususan, Quizizz – foydalanishni afzal ko‘rmoqda. Google Classroom orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘qituvchi dars mavzularini elektron hujjatlar ko‘rinishida joylashtiradi, topshiriqlarni belgilaydi va ularning bajarilishini kuzatadi(1-rasm). O‘quvchilar fayllarni yuklaydi, sharhlar qoldiradi va o‘z vaqtida fikr almashadi. Bu muloqotli muhit dars jarayonining uzluksizligini ta’minlabgina qolmay, baholashning ham avtomatlashtirilishiga zamin yaratadi[1].

Microsoft Teams ayniqsa oliy ta’lim muassasalarida keng qo‘llaniladi[2]. Uning asosiy ustunligi real vaqtda videodarslarni tashkil etish, elektron jurnallar yuritish va boshqa Microsoft servislariga integratsiya qilish imkoniyatidir (2-rasm).

Quizizz esa asosan baholash va testlar o‘tkazishda qo‘llaniladi(3-rasm). Raqobat elementi, ball tizimi va natijalarni tezkor aks ettirish orqali o‘quvchining faol ishtirokini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, foydalanuvchi tajribasini o‘rganish natijalariga ko‘ra, aksar o‘qituvchilar veb-platformalarning xorijiy tilda bo‘lishi, internet tezligi, texnik xizmat ko‘rsatishning yetishmasligi kabi muammolarni qayd etgan. O‘quvchilar esa mobil qurilmalar cheklovi sababli barcha funksiyalarni to‘liq ishlata olmasligini bildirgan.

Compiled on: June 19, 2025.
Manuscript prepared by the author.




Figure 1. Google Classroom




Figure 2. Microsoft Teams




Figure 3. Quizizz veb-saytida yaratilgan test

Muhokama

Veb-saytlar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish bugungi raqamli muhitda o'qitish va o'rganish jarayonlarini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'layotgan dolzarb yo'nalishlardan biridir. Ushbu vositalar nafaqat o'quv materiallarini yetkazishda, balki o'quvchilarning faolligini oshirish, ularda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va o'qituvchi bilan muloqotni jonlantirishda ham samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda[3]. Google Classroom, Microsoft Teams yoki Quizizz kabi platformalarning amaliy tahlili ularning didaktik imkoniyatlarini, ayniqsa baholash, muloqot va monitoring jarayonlaridagi qulayliklarini namoyon etdi. Biroq mazkur texnologiyalarni samarali joriy etish uchun ularni milliy o'quv dasturlariga moslashtirish, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish va texnik sharoitlarni optimallashtirish zarur. Shunday yondashuvgina ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish, uning samaradorligini oshirish hamda raqamli muhitda pedagogik maqsadlarga erishishni ta'minlay oladi[4]. O'qituvchilarning katta qismi texnologiyalardan foydalanishga intilish bildirgan bo'lsa-da, bu jarayonda didaktik yondashuvlar ko'p hollarda an'anaviy usullar bilan almashtirib qo'yilgan. Bu esa raqamli muhitning pedagogik imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, veb-saytlarni shunchaki axborot tarqatuvchi platforma emas, balki o'quvchini faollikka undaydigan, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilishga o'rgatuvchi interaktiv muhit sifatida ishlatish lozim[5].

Xulosa

Raqamli transformasiya ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalari hamda turli veb platformala asosiy argument bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'limni tashkil etishda an'anaviy ko'rinishdan aralash (dual) ta'limga o'tishda bunday argumentlar pedagogik dasturiy vosita hisoblanadi. Bunday ko'rinishda ta'limni tashkil etish ta'lim oluvchilarda bir vaqtning o'zida tinglash, ko'rish, amaliy bajarish, natijalarni ko'rish, tahlil qilish kabi bir qancha qobiliyatlarni rivojlantiradi. Dars jarayonida veb-saytlar asosida topshiriqlar berib va shu asosda baholash barcha ta'lim oluvchilarni qamrab oladi. Shuningdek, guruh bo'yicha o'zlashtirish reytingi shakllanadi. Shu kabi omillarni hisobga oladigan bo'lsak, barcha sohalarda ushbu veb-saytlar asosida oliib borish raqamli transformatsiya muhitida ta'lim jarayoni tashkil etishning naqadar zarurligi va dolzarbligini belgilab beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Google for Education. Google Classroom – https://edu.google.com (Google for Education. Google Classroom platformasi // Google for Education platform: Google Classroom).

2. Microsoft Education. Microsoft Teams for Education – https://education.microsoft.com (Microsoft Education. Ta'lim uchun Microsoft Teams // Microsoft Teams for Educational Use).

3. Tuxtaboyev, S. X. "ELEKTRON TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA VIRTUAL TEXNOLOGIYALARNI O 'RNI VA AHAMIYATI."ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI 1.1 (2024): 210-213..

4. Sarvarbek, Tukhtaboev. "THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE ORGANIZATION OF DISTANCE EDUCATION AND ITS THEORETICAL."ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071 12.10 (2023): 85-90.

5. Kh, Tukhtaboev S. "The Role Of The Python Programming Language In Teaching "Web-Oriented Programming Languages" And The Methodology Of Its Use."Onomázein 62 (2023): 2150-2154.